

“TURKIY XALQLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

TURKIY XALQLAR FOLKLORINING TADRIJIY TARAQQIYOTI VA ASOSIY TENDENSIYALARI

Hulkar HAMROEVA,

*O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi
professori, filologiya fanlari doktori(DSc)*

Shahlo NARALIEVA,

*Qozog‘iston Respublikasi, J.Tashenev nomli
universitet xalqaro hamkorlik departamenti direktori,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15290620>

Annotatsiya. Mazkur maqolada turkiy xalqlar folklorshunosligining tadrijiy taraqqiyoti, shakllanish bosqichlari, etnografik – estetik tamoyillari taniqli olim J.Eshonqulovning milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashgan madaniy an‘analari, mifologik obrazlar haqidagi fikrlari misolida tadqiq qilindi.

Kalit so‘zlar: marosim, tarixiy meros, madaniy an‘ana, qadriyat, san‘at, Turan, o‘zbek – qozoq xalqlari, udum, epos, ruhiy omil, mifologiya.

Аннотация. В данной статье исследуются эволюционное развитие, этапы формирования и этнографическо-эстетические принципы фольклористики тюркских народов на примере мыслей выдающегося ученого Ж. Эшонкулова о культурных традициях, мифологических образах, гармонично связанных с национальными ценностями.

Ключевые слова: ритуал, историческое наследие, культурная традиция, ценность, искусство, Туран, узбекско-козжокский народ, обычай, эпос, духовный фактор, мифология.

Annotation. This article examines the evolutionary development, stages of formation, and ethnographic-aesthetic principles of folklore studies of Turkic peoples, based on the ideas of prominent scholar J. Eshonqulov regarding cultural traditions and mythological images harmonized with national values.

Key words: ritual, historical heritage, cultural tradition, value, art, Turan, Uzbek-Kozhok people, custom, epic, spiritual factor, mythology.

Tabarruk Turan zamini – azaldan qadim tamaddun beshigi sifatida muhtasham madaniy merosi, betakror an‘analari, muazzam milliy qadriyatlari, duru javohirlarga boy xalq og‘zaki ijodi bilan faxrlanadi. O‘zbek va qozoq xalqlari milliy taraqqiyotning yangi davriga qadam qo‘ygan hozirgi zamonda turkiylar madaniyati va tarixi, an‘ana va etnografiyasi, adabiyoti va san‘atini o‘rganishga davlat siyosati darajasida e‘tibor berilmoqda. Mustaqillikni mustahkamlash, integratsiya va globallashuv jarayonida jasoratli olimlar madaniy meros haqidagi tarix haqiqatlarini yuzaga chiqarmoqdalar. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev to‘g‘ri

“TURKIY XALQLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

ta’kidlaganidek, “ ...olimlik – Alloh nuri tajassum etgan ulug‘ martaba. Bu martabadan jamiyatning butun vujudiga ziyo taraladi. Olimlarning suhbatidan inson o‘ziga ma’naviy boylik oladi, qalb kengliklarini, tafakkur teranligini his qiladi” [Mirziyoev Sh. 1:78].

Folklorshunoslik shunday murakkab fanki, uning tadrijiy taraqqiyotini belgilovchi asosiy omillar ko‘hna tarix yangilayotgan faktlarni qayd etish emas, balki mavjud dalillarni innovatsion tamoyillar doirasida teran tafakkur bilan tahlil va tadqiq qilish, uning yangi qirralarini kashf etishdan iboratdir.

Professor Jabbor Eshonqulning asosiy izlanishlari tush, epos va miflar badiiyatini folklorshunoslik, adabiyotshunoslik, baxshishunoslik, she’rshunoslik va insonshunoslik doirasida tahlil va tadqiq qilish.. Tush mavhum hodisa, uni tasavvur qilish mumkindir, lekin anglash oson emas. Tushlar va miflar orasidagi bog‘liqlikni ularning bir – birlari bilan munosabatlar jarayonini o‘rganish orqali ochar ekan, professor Eshonqulov tushni xususiylik – umumiylik, mohiyat – hodisa, imkoniyat – voqelik, sabab – natija kesimida izohlaydi. U aynan shu metodologik usul vositasida tush hodisalarini mukammal tadqiq qilishda tarixiy – ma’rifiy, falsafiy - psixologik, badiiy – estetik, etnografik – etnologik tamoyillarga va dialektika qonuniyatlariga tayanish kerak, degan g‘oyani ilgari suradi.

Tush mohiyatini ilmiy asoslash va mifopoetika ravnaqida u ulkan burilishlarning yalovbardori, yuksak tafakkur sohibi sifatida namoyon bo‘ladi. Olimning zahmatkashligi ularni qay darajada o‘zlashtirib, shogirdlariga o‘rgatishida, vatan va ilm – fan taraqqiyoti yo‘lida foydalanishga bo‘lgan intilishlarida ham o‘z ifodasini topadi.

Jabbor Eshonqul – serqirra iste’dod sohibi, hamisha faol, sermahsul, zabardast olim, ilmiy maktab yaratgan murabbiy. Uning ilmiy – pedagogik faoliyati aynan yangi – yangi ilmiy – nazariy g‘oyalarning keskin va asosli qirralari bilan ajralib turadi. U nafaqat o‘zbek folklorshunosligi, balki turkologiya, adabiyotshunoslik va publitsistika sohalarida ham jahon ilmiy – madaniy muhitida o‘zining munosib nufuzi va nomiga ega olim sifatida e’tirof etiladi. Aslida o‘tkir aql sohiblarining, haqiqatgo‘y olimlarning keskin, aniq va nazariy asoslangan ilmiy g‘oyalari tufayli fan rivojlanadi, ilmiy maktablar shakllanadi.

Buyuk allomalarga beshik Qashqadaryoda tug‘ilgan, azim Toshkentda kamolga yetgan talabchan va qat’iyatli olim tarixiy an’analarga asoslangan muhitda o‘zining adabiy – ilmiy – ijodiy idroki bilan, o‘tmish – borliq va kelajakni yaxlit hamda xolis tahlil qilish, hodisalarning mohiyatga, mohiyatning jamiyatga

“TURKIY XALQLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

munosabatini anglash jarayonida haqiqatning yangi qirralarini birma –bir kashf etish, uzviylikda o‘rganish iste’dodi bilan ajralib turadi.

Shunday iste’dod bilan u folklorshunoslikning zamonaviy tadqiq metodologiyasini yaratdi, dialektik mantiq usullarini tushlar va miflar talqiniga uzviylikda tatbiq qila boshladi. Uning xalqaro ilmiy – amaliy anjumanlardagi chuqur mazmunli, salmoqdor, ayni paytda keskin mulohazalri hamisha ilm ahlining e’tiborini tortadi, yaxshigina bahs – munozaralarga sabab bo‘ladi.

Salohiyatli olimning fidoyiligi, vatanparvarligi, ilmga sadoqati Jabbor Eshonqulov kabi o‘z xalqi tarixi, madaniy merosini, urf – odatlarini an’ana va qadriyatlarini, sirli miflarini, sehrli dostonlarini onasini sevgandek sevishtirida, barcha mashaqqatlarni yengib, sabot bilan ularni tadqiq qilishlarida, tunlarni tonglarga ulab izlanishlarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Bunday olijanob fazilatlarini milliy o‘zlikni anglash va qadrlashning muhim tamoyillari qatorida tilga olish mumkin.

Xususan, globallashuvning avj olishi sharoitida yuzaga keladigan murakkab ziddiyatlar, “ommaviy madaniyat” muammolari oldida ularga nisbatan befarqlik, loqaydlik ruhiyati shakllanishining oldini olish ham o‘zining ijobiy samaralarini bermoqda.

Jabbor Eshonqulov ilmiy tadqiqotlarida, ilmiy – ommabop va publitsistik maqolalarida asosiy e’tibor milliy – madaniy merosni, qimmatbaho duru – javohirlardan iborat xalq og‘zaki ijodini bugungi yoshlarimiz ongi va dunyoqarashining ajralmas qismiga aylantirish hamda ularning navqiron ongida internet va turli voqeliklar ta’sirida yuzaga kelayotgan milliy qadriyatlar va ma’naviyatdan uzoqlashish, begonalashish oqibatlarining oldini olish, o‘zib kelayotgan yosh avlod qalbini milliy va umuminsoniy qadriyatlar hisobiga boyitishga qaratilgan.

Qozog‘istonlik talabalar Jabbor Eshonqulovni iste’dodli, taniqli o‘zbek folklorshunos olimlaridan biri sifatida bilishardi. 2021 yilda Janubiy Qozog‘iston davlat pedagogika universiteti tavsiyasi bilan Almatida “O‘zbek folklori” darsligi bosildi. Talabalarimiz olimni kitob mualliflaridan biri sifatida yanada yaxshiroq tanishdi. Toshkentlik hamkasblarimizdan iltimos qilib, uning “Folklor: obraz va talqin”, “Epik tafakkur tadriji”, “Mif va badiiy tafakkur” kabi risolalarini oldik. Talabalarimiz o‘zgacha qiziqish va hayrat bilan o‘qishdi bu kitoblarni. “Men uchun folklor hamma narsa. Ibtidoning boshlanishi, xaosning kosmosga aylanishi, tartibsizliklarga tartib berilishi, jamiki go‘zalliklarning avvali, xalqning o‘ziday

“TURKIY XALQLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

oddiy, biroq xalqning o‘ziday buyuk bo‘lgan san’atning beshigidir.folklardan xabardorlik xuddi qo‘lingizga sehrli kalit tutqazgandek bo‘ladi. Siz bu kalit bilan istalgan san’at qo‘rg‘onining darvozasini osongina ochib ketaverasiz. Zero, qaysi tur, qaysi janr bo‘lmasin, ijod – inson qalbi va ruhiyatining ko‘zgusidir”[Eshonqulov J. 4:253], deydi olim. Professor Jabbor Eshonqulovning ilmiy tadqiqotlari bizning talabalarimiz va magistrlarımız qo‘liga shunday sehrli kalitni, yangi g‘oyalarni amalga oshirish imkoniyatini, xalq ijodiyotini sevish, qadrlash, asrab – avaylash sabog‘ini berdi, degan fikrdamiz.

Qozog‘iston Respublikasi, J.Tashenev nomli universitetda Markaziy Osiyoda yagona o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi bo‘yicha magistratura ochilgan. 2023-2024 yillarda ular “Folklorshunoslik asoslari” darsida (ma’ruzachi H.Hamroeva) “Mif va badiiy tafakkur” risolasini o‘rganishdi. Natijada, magistrlarımız bugungi kunda mifologiya, xalq qo‘shiqlari, epos va marosim, motiv va syujet, epos va roman, mif va roman, voqelik va xayolot uyg‘unligi kabi yo‘nalishlar bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishmoqda. J.Eshonqulning qiziqishlari doirasi kengligi ham yoshlarımız uchun ibrat. Olimning etnik va etnologik tamoyillar asosida mifning urf –odat va marosimlar, udumlar, magiya, shomonchilik xususidagi ilmiy xulosalari magistrlarımızni Qozog‘iston o‘zbeklari folklorini, madaniy an‘analarini, etnomadaniyatini yangicha yondashuvda o‘rganishga undadi. J.Tashenev nomli universitetda folklorshunoslik ilmiy - tadqiqot markazini ochish niyatimiz ham bor. Zero, tarixi va taqdiri bir o‘zbek – qozoq xalqlarining folklorida mushtarak tomonlar juda ko‘p. Ularda xalq donishmandligi va falsafasini namoyon etuvchi, hayotiy yo‘l-yo‘riqlar bilan ziynatlangan hikmatlar, insoniy qadriyatlar hamda yurtsevarlik tuyg‘ulari eng yuqori ohangda, rang-barang shakllarda ifodalanadi.

Azaliy va abadiy qadriyatlar, tarixiy hodisalar, o‘tkinchi voqealar to‘qnashib turadigan bu dunyoda tarix haqiqatlarini tiklash nihoyatda mushkul. Asrlar bo‘yi Turon zamini son-sanoqsiz urushlar, qirg‘inlarni ko‘rdi. Xalqning boyliklari talandi, shaharlar, qasrlar xarobaga aylantirildi, nodir madaniyat va san’at yodgorliklari, ilmfan kashfiyotlari yo‘q qilindi, an‘ana va qadriyatlarning katta qismi o‘zgartirib yuborildi. Inson ertangi kuniga ishonch bilan yashashi, milliy madaniyat muhitida o‘zini erkin his qilishi uchun madaniy merosni bilishi shart. O‘zbek va qozoq xalqlarining qadimiy madaniyati juda boy an‘analarga ega. U o‘z ildizlari bilan uzoq asrlar tarixiga tutashgan.

Madaniy meros – ota makonning shonli o‘tmishi, millat va xalqning hayot falsafasidir. Buyuk ipak yo‘li ustida joylashgan O‘zbekiston va Qozog‘iston qadim

“TURKIY XALQLAR FOLKLORINING QIYOSIY O'RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

zamonlardan buyon Sharq bilan G'arb, xalqlarining savdo va madaniy aloqalari ravnaqida muhim ahamiyat kasb etgan. Mustaqillik sharofati bilan tarix haqiqatlari tiklandi. Hozirgi davrda dunyo yangilanmoqda. Yangi zamon, yangi fikr va yangicha dunyoqarash davrida istiqbol nafaqat xalqlarimiz hayotida, balki tafakkurida ham juda katta o'zgarishlar yasadi.

Xulosa o'rnida shuni aytilish mumkinki, xalq og'zaki ijodi inson ruhiyati va ongu shuuriga tez ta'sir etuvchi vosita sifatida katta qudratga ega. Turkiy tilli xalqlarning muloqot maydonlarini yanada kengaytirishda, yoshlar qalbida tarixga qiziqish va hurmat, qadim qadriyatlarga muhabbat tuyg'usini shakllantirishda, mafkuraviy tahdidlar va ommaviy madaniyat ta'siriga qarshi tura oladigan komil insonlarni tarbiyalashda madaniy meros muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. Т.: “Ўзбекистон” нашриёти.,2021.
2. Асрларга тенгдош кўшиқлар. Урф – одат ва маросим кўшиқлари. Нашрга тайёрловчилар:Ж.Эшонкулов, И.Абдурахмонов.Тошкент,2021.
3. Мирзаев Т. Турдимов Ш. Эшонкулов Ж. Наралева Ш .Ўзбек фольклори. Алмати, 2021.
4. Эшонкулов Ж. Миф ва бадий тафаккур.Тошкент, 2019.
5. Эшонкулов Ж. Фольклор: образ ва талқин.Тошкент, 1999.
6. Эшонкулов Ж. Эпик тафаккур тадриди. Тошкент, 2006.